

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, RIVOJLANISH TARIXI, SOHALARI VA TADQIQOT METODLARI

Abdurahimova Shoiraxon

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada psixologiya fanining tarixi va shu sohadagi olimlarning qarashlari, psixologiya fanining tarmoqlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, fanning bugungi kundagi ahamiyati haqida ham ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Psixologiya, psixika, ong, fan tarmoqlari, ruh, tibbiyot, laboratoriya, pedagogika

Аннотация: В статье рассматриваются история психологической науки, взгляды ученых в этой области, а также отрасли психологии. Кроме того, подчеркивается значимость науки в современном мире.

Ключевые слова: психология, психика, сознание, отрасли науки, дух, медицина, лаборатория, педагогика

Annotation: This article discusses the history of psychology, the perspectives of prominent scholars in the field, and the various branches of psychology. Additionally, the significance of the science in the modern world is highlighted.

Keywords: Psychology, psyche, consciousness, branches of science, spirit, medicine, laboratory, education science.

Tarixda turli madaniyatlar ong, qalb, ruh, ko'ngil va boshqalarning mohiyati haqida mulohaza yuritganlar. Masalan, Qadimgi Misrda Edwin Smith Papyrus miyaning dastlabki tavsifini, uning vazifalari haqidagi ba'zi mulohazalarni o'z ichiga oladi va bu tavsiflar inson tanasini anatomik jihatdan o'rganib kashf qilgan birinchi misrlik shifokor Imhotep bilan aloqador bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Psixologiya ruh haqidagi fan (eramizdan avvalgi VI asr-eramizning XVI asrigacha). O'sha davrlarda har bir olim ruh haqidagi o'z ta'limotlarini ilgari surishga harakat qilganlar. Birlamchi qarashlar animistik xarakterga ega bo'lgan, ya'ni "har bitta predmetning o'zining qalbi bor"- deb e'tirof etganlar. Yunon faylasufi Arastu barcha organik jarayonlarda psixik jarayonlar aks etgan deb aytib o'tgan. O'simliklar va hayvonot dunyosiga ruh ta'limotini kiritgan.

Keyinchalik psixika haqida ikkita qarama-qarshi qarash paydo bo'lgan: materialistik (Demokrit) va idealistik (Aflotun). Demokritning fikricha, psixika o'z tabiatidan kelib chiqqan holda moddiy hisoblanadi, ruhning holati kichik atomlardan tashkil topgan va atomlar jismoniy tanada aks etadi. Aflotunning fikriga ko'ra esa ruh bu mukammal. Dunyoni anglamoqlik esa mukammal ruhdagi g'oyalar dunyosini

anglashdan iborat hamda ruh inson tanasiga tushmasdan oldin ham rivojlanishda bo'lgan.

XVII-XVIII asrlarga kelib psixologiya ong haqidagi ta'limotdir degan nazariya vujudga keldi. Psixologiya sohasidagi qarashlar eksperimental psixologiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Uzoq yillar davomida psixologiyaga tabiiy, ijtimoiy fanlardan ajratilib o'rganiladigan ilm sohasi sifatida qarab kelingan. Buning asosiy sababi esa o'sha paytlarda psixologiya, inson ruhi idealistik nuqtayi nazardan talqin etilgan. R. Dekart hayvonlarning ruhi yo'q deb aytib o'tgan. Hayvonlarning xatti-harakatlari esa shunchaki reflekslar deb ataladi. Uning fikricha onging paydo bo'lishi va tafakkurning rivojlanishi ichki nutq orqali shakllanadi. Dj. Lokkning fikriga ko'ra ong insonning hissiyotlari orasiga yashiringan, u ongni atomik tarzda tahlil qilish usulini qo'llagan. Bunga ko'ra, psixik holatlar birlamchi holatlar sifatida e'tirof etiladi. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi 1879-yillarga borib taqaladi. Negaki, aynan shu yilda olim Vilgelm Vundt tomonidan dunyoda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasi tashkil etiladi. Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida shakllanishiga shartli reflekslar haqidagi ta'limotlar va psixik kasalliklarni davolash usullarining tadqiq etilishi, shuningdek, fiziologiya fanining rivojlanishi ham asos bo'lgan.

Psixologiya fanining predmeti psixika bo'lganligi sababli uning asosiy funksiyasi obyektiv dunyo haqidagi jarayonlarni o'zida aks ettirishini hisobga oladi. Psixologiya boshqa fanlar qatori falsafa fanining negizida vujudga kelgan. Falsafa aynan bilish nazariyalari psixika haqidagi tasavvurlarni tahlil qiladi. Bunda psixika birlamchi, ong ikkilamchi holatlar sifatida e'tirof etiladi. Psixologiya inson faoliyatida psixikani va uning rivojlanishini o'rganadi. Psixologiya barcha fanlarni integratsiya qilib, ularga ta'sir ko'rsatadi va ular insoniy bilimlarning umumiy modeli sifatida talqin qilinadi. Pedagogika o'qitish metodikalarini psixologiyaning metodikalaridan o'zlashtiradi. Pedagogikadagi qobiliyatlarga nisbatan yondashuvlar ham psixologik jarayonlardan olingan.

Psixologiya fani bugungi kunda inson ruhiy salomatligini saqlash, stress va depressiya bilan kurashish, ijtimoiy moslashuv, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda ta'lim va mehnat samadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra ta'lim berish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda ham psixologiya fani jadallik bilan rivojlanib, ta'lim, sog'likni saqlash va boshqa sohalarda o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurullo o'g'li, A. A. (2023). Sharq mutafakkirlarining asarlarida psixodiagnostikaga doir qarashlari. Тараққиёт, 13. 2023.
2. Vaxabova O'.T (2024). Globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (12(145)),46-51.
3. O'gilxon T, V. (2023). Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22.
4. E.G'.G'oziyev "Psixologiya"darslik
5. Muxamedova D.G'.Mullaboeva N.M.Rasulov A.I."Umumiy psixologiya"darslik 2017.